

УДК:633.88.

**“KOVUL, KOVAR (CAPPARIS SPINOSA L.) O‘SIMLIGINING
URUG‘LARINI ISSIQXONA SHAROITIDA EKILGAN URUG‘LARNING
UNUVCHANLIK DARAJASI BO‘YICHA OLINGAN TAJRIBA NATIJALARINI
ANIQLASH**

Abdulazizov Shukurullo.Xabibullo o‘g‘li.

*O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti
Andijon filiali kichik ilmiy xodimi*

Inomjonov Shuxrat.Nematjonovich.

*O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti
Andijon filiali kichik ilmiy xodimi*

Ismatullayeva Malikaxon.Yoqibjon qizi.

*O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti
Andijon filiali kichik ilmiy xodimi*

Rustamova Gulnozaxon Yusufjonovna

*O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti
Andijon filiali kichik ilmiy xodimi*

Annotatsiya: *Andijon viloyati sharoitida Dorivor Kovar (CAPPARIS SPINOSA L.) o‘simligining ilmiy asosda yetishtirish, issiqxona sharoitida urug‘larning unuvchanlik darajasini aniqlash va ularning ilmiy-tadqiqot natijalari yoritib borish ishlarini o‘rganish.*

Kalit so‘zlari: *Issiqxona sharoitida 3 xil tuproqlarda, dorivor Kovar o‘simligining ekish usullarini o‘rganish.*

Annotation: *To study scientific cultivation of Dorivor Kovar (CAPPARIS SPINOSA L.) plant in the conditions of Andijan region, to determine the level of germination of seeds in greenhouse conditions and to clarify the results of their scientific research.*

Key words: *Studying methods of planting medicinal Kovar plant in 3 different soils in greenhouse conditions.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi PQ-4901-son qarorida Respublika hududlarida dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashga doir ilmiy tadqiqotlarning yagona bazasini yaratish, xorijiy davlatlarning ilg‘or ilmiy ishlanmalarini o‘rganib borish, yetakchi ilmiy muassasalar bilan hamkorlik o‘rnatish hamda zamonaviy texnologiyalar, ilmiy ishlanmalarni respublikaga joriy etish va mavjud imkoniyatlardan samarali

foydalanishni kuchaytirish xususan respublika hududidagi yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklar areallarini o'rganish va zaxiralarini aniqlash, mavjud bioresurslar genofondini saqlash, onalik plantatsiyalarini tashkil etish to'g'risidagi qarorini ijrosini ta'minlab "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytiriga oid chora-tadbirlar" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil, 26-noyabrdagi

PQ-4901-sonli qarori ishlab chiqildi. Bizning olib borayotgan ilmiy dissertatsiya ishimiz, ushbu qarorning 2-bandini ya'ni "Dorivor o'simliklarni ilmiy asosda yetishtirish va qayta ishlash, ulardan foydalanishning yagona strategiyasini shakllantirish"ning ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi. Kovardorivorlik xususiyatiga ko'ra ko'p qirrali bo'lib, asosan immun tizimi yaxshilanishida, oshqozon-ichak kasalliklarida, o't pufak devoridagi toshlarni eritishda, tana haroratini normallashtirishda muhim ahamiyatga ega o'simlik hisoblanadi.

Abu Ali Ibn Sino kovar o'simligining nafas qisishi, meda ichak kasalliklarini davolash uchun xamda og'riq qoldiruvchi, yaralarni tuzatuvchi va gijja xaydovchi vosita sifatida qo'llaniladi.


Shuningdek, o'tkaziladigan tadqiqotlar davomida magistrlik dissertatsiya ish rejasidagi ayrim vazifalarga qo'shimchalar kiritilishi yoki boshqa vazifalarni bajarishga o'zgartirilishi mumkin.

Kovar (*Capparis spinosa L*) o'simligini yetishtirishda mineral o'g'itlar meyorlarining o'sishi, rivojlanishi va xosildorligiga tasirini o'rganish.

O'simliklar dunyosida dorivor o'simliklarni o'rni beqiyosdir. Chunki dorivor o'simliklar boshqa o'simliklar singari turli muhitda o'sib vegetatsiya jarayonini amalga oshiravermaydi. Shuningdek Dorivor o'simliklar o'sib rivojlanishi uchun ma'lum bir muhit tanlaydi. O'zbekiston farmatsevtika sanoatini dorivor o'simliklar xom ashyosiga bo'lgan talabi kun sayin ortib bormoqda. Bunday o'simliklarga: Kovul, dorivor tirnoqgul, dorivor moychechak, na'matak, valeriana, do'lana, zirk va boshqalar kiradi. Bular orasida Kovar farmatsevtika, meditsina sanotida va ratitsid sifatida qo'llanilishi bilan o'zining keng qamrovda ishlatilishi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur o'simliklar xom-ashyosini yetishtirish o'z navbatida O'zbekistonda farmatsevtika sanoatini xom-ashyosiga bo'lgan talabni ma'lum miqdorda qondiradi. Bu muammolarni ijobiy tomonga hal etish bevosita dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish xom-ashyosini tayyorlash bilan bog'liq.

Kovar (*Capparis spinosa L*) o'simligini yetishtirishda mineral o'g'itlar meyorlarining o'sish, rivijlanish va xosildorligiga tasirini o'rganish.

O'simliklar dunyosida dorivor o'simliklarni o'rni beqiyosdir. Chunki dorivor o'simliklar boshqa o'simliklar singari turli muhitda o'sib vegetatsiya jarayonini amalga oshiravermaydi. Shuningdek Dorivor o'simliklar o'sib rivojlanishi uchun ma'lum bir muhit tanlaydi. O'zbekiston farmatsevtika sanoatini dorivor o'simliklar xom ashyosiga bo'lgan talabi kun sayin ortib bormoqda. Bunday o'simliklarga: Kovul, dorivor tirnoqgul, dorivor moychechak, na`matak, valeriana, do`lana, zirk va boshqalar kiradi. Bular orasida Kovar farmatsevtika, meditsina sanotida va ratitsid sifatida qo'llanilishi bilan o'zining keng qamrovda ishlatilishi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur o'simliklar xom-ashyosini yetishtirish o'z navbatida O'zbekistonda farmatsevtika sanoatini xom-ashyosiga bo'lgan talabni ma'lum miqdorda qondiradi. Bu muammolarni ijobiy tomonga hal



etish bevosita dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish xom-ashyosini tayyorlash bilan bog'liq.

DALA-TAJRIBA SXEMASI

Variantlar	Ekin navi
1-variant	Kovar O'zbekiston 20 navi
2-variant	Kovar O'zbekiston 20 navi
3-variant	Kovar O'zbekiston 20 navi

Variant va qaytariqlar sxemasi.

Kovar o'simligining qisqacha tavsifi

kovarkavardoshlar - Capparidaceae oilasiga mansub bo'lib, bo'yi 2,5 metrgacha yetadigan sershox tikanli, yer bag'irlab o'suvchi poyali ko'p yillik lianasimon o't o'simlik. Barglari yimaloq, teskari tuhumsimon yoki elipsimon bo'lib, poyasi bilan shoxlarida bandi yordamida ketma-ket o'rnashgan. Oq rangli

yirik to'rt bo'lakli gullari uzun bandi bilan barg qo'ltig'ida joylashgan. Mevasi ko'p urug'li, teskari tuhumsimon, sershira bo'lib, xo'l mevaga o'xshab ketadi. Kovar iyun-iyul oylarida gullaydi, mevasi iyul-avgustda yetiladi.

No	Maxalliy tuproq	Chirindili tuproq	Maxsus aralashmali chirindi	Ko'chatxonada ekilgan
I variant nazorat	0-35 gramm 100 dona	0-50 gramm 100 dona	0-75 gramm 100 dona	0-100 gramm 100 dona
Unuvchanlik darajasi	28 dona 28%	35 dona 35%	41 dona 41%	58 dona 58%
II variant	0-50 gramm 100 dona	60 gramm 100 dona	75 gramm 100 dona	100 gramm 100
Unuvchanlik darajasi	38 dona 38%	45 dona 45%	60 dona 60%	78 dona 78%
III variant	0-50 gramm 100 dona	75 gramm 100 dona	80 gramm 100 dona	100 gramm 100 dona
Unuvchanlik darajasi	48 dona 48%	55 dona 55%	69 dona 69%	88 dona 88%

Kovul o'simligining fenologik kuzatuv ishlari seleksiya urug'chilik va ko'chatchilik laboratoriyasida yetishtirib kelinayotgan Kovul o'simligining erta baxorda ekilgan maxsus kuloklarga o'simliklarni 100 dona o'simlik tanlab olinib 4 ta variant 3 ta qaytariqdan iborat bo'lgan o'simliklarni 100 dona tanlab olinib ularning kundalik nazorat ishlari olib borilmoqda.

Unib chiqqan tikonli kovullarni fenologik kuzatuv natijalari olib borilib ularning kundalik o'sib rivojlanishi kundalik dala daftariga yozib borilmoqda fenologik kuzatishlar natijasida mart oyining birinchi dekadasida ekilgan xar bir urug'larning maxsus kuloklardagi 1 maxsus ekilgan tikonli Kovullarni o'sib rivojlanishi quyidagi natijalar orqali aniqlandi



Barglari och yashil rangda, mum bilan qoplanganga o'xshaydi, ellips shaklida va bandli bo'ladi. Barg yonligi uncha katta emas, tikanli. Kovar may oyidan to oktyabr oyigacha o'sadi. Dona-dona gullaydi. Guli nihoyatda go'zal bo'lib, ertalab ochiladi va kechga borib yopiladi. Kavar barglarining yonidan uzun band chiqarib gullaydi. Gul aylanasi 3 santimetr gacha bo'ladi, oqish pushti rangli gullarning o'rtasida uzun nafarmon tuklari yaqqol ko'zga tashlanadi. Kavar bir uyali go'shtli reza meva beradi. Mevasi ikki palladan iborat bo'lib, tarvuzga o'xshaydi. Kovar quyoshsevar va qurg'oqbardosh o'simlik. Bir yerdan 15 yildan ortiq davr davomida o'sadi. Kavarni urug'dan, butasining bir qismidan ko'paytirish mumkin. Yashil, tuxumsimon va bodringga o'xshash mevalar pishgandan so'ng lola misol ochiladi. -8°S gacha bo'lgan sovuqqa chidaydi.

Urug'larning qaynatmasi-skleroz, diyuretik, prostatit, hemoroid uchun ishlatiladi. 20 dona urug' bo'laklarini maydalab, bir stakan qaynoq suv quyib past olovda 10 daqiqa davomida qaynatiladi. Bir necha soat turib olib, filtrlang va kuniga 3-4 marta 50 ml dan qo'llaash kifoya qiladi.

Mevasidan tayyorlangan damlamasi - yo'tal, revmatizm, burun oqishi, toshbaqa kasaliga yaxshi natija beradi. Mevalari maydalanib, shisha idishga solib 0,5 litr spirt quyiladi so'ng usti yopiladi va 2 hafta salqin qorong'i joyda saqlanadi. So'ng ushbu damlama tayyor holga kelgach uni och qoringa 30 daqiqa oldin 1choy qoshiqdan 3 mahal 3 kun ichiladi.

Fenologik kuzatuv olib borilgan ko'chatlar o'sib rivojlanishi									
(sm,m)									
	QAYTARIQLAR			QAYTARIQLAR			QAYTARIQLAR		
I variant (sm)	2.1	1.7	1.4	2.0	1.6	2.3	2.0	2.1	1.8
	1.7	1.9	1.7	1.6	2.1	2.0	1.4	1.6	1.3
	1.9	2.2	1.6	2.1	1.9	1.7	1.2	1.5	1.8
II variant (sm)	2.4	2.1	1.7	1.5	2.4	2.6	3.2	3.2	2.9
	1.6	2.0	1.5	1.8	2.2	2.4	2.6	3.0	3.2
	1.6	1.7	1.9	2.0	1.9	2.7	3.0	2.9	2.7
III Variant (sm)	2.7	3.2	2.0	2.0	2.0	2.5	1.8	2.0	1.5
	2.2	3.0	1.7	1.4	1.7	1.7	2.2	1.7	2.0
	2.9	2.6	2.2	1.7	1.5	1.2	2.0	1.5	2.2

XULOSA

Bajarilgan ilmiy tadqiqot natijalaridan kovar o'simligining urug'lari yenvar oylarida starifikatsiyaga qo'yilib ularning unuvchanlik darajasi maxsus laboratoriya dala maydonlariga qo'yildi. Urug'larning unuvchanlik darajasi aniqlandi, 1000 doan urug'larning 896 donasi unib chiqildi va ularning 2 xil usulda unuvchanlik darajasi aniqlanib kelindi. Xozirgi kunga kovar o'simligining ikkinchi usulida esa 1000 dona urug' starifikatsiyaga qo'yilgan urug'lardan 943 donasi unib chiqilgani aniqlandi.

Kovar o'simligining yetishtirish oziq-ovqat va farmasevtikada dori maxsulotlari tayyorlash uchun ekilmoqda va iqtisodiy jixatdan samarali ekin ekanligini hamda xo'jaliklarning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etishini aloxida ta'kidlash lozim. O'z navbatida, kovar Respublikamizning sug'oriladigan yerlarida yetishtirishning agrotexnik qoidalarini takomillashtirishni, ilg'or fan-texnika yutuqlaridan va mamlakatimizning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan unumli foydalangan holda uning don va ko'kat hosildorligini oshirish imkoniyatlari mavjud.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arxipova N.S., Brus I.P., Chernov I.A. Introduksiya amaranta na 5 zasolennix pochvax. // Introduksiya netradisionnix i redkix seliskoxozyaystvennix rasteniy: Mat. Vserossiyskogo nauchno-proizv. konf., - Penza, 1998. -S. 61-62.
2. Berri Dj. A., Danton U. Dj. Zavisimosti fotosinteza ot faktorov okrujayushey sredi. // Fotosintez. T2-M, Mir. 1987. - S. 273-364.
3. Voyno L.I. , Gins M.S., Grishakova I.V., Chernego T.V. Antimikrobnoe i fungisidnoe deystviya ekstraktov amaranta. // Novie i netradisionnie rasteniya i perspektivi ix ispolizovaniya: Moskva - Pushino. T.Z, 2001.- S. 431 -432.
4. Velibekov R.M., Velibekov M.D., Agafonov N.S. Geterogenosti i indusirovannaya izmenchivosti amaranta. // Introduksiya netradisionnix i redkix seliskoxozyaystvennix rasteniy: Materiali Vserossiyskoy nauchno-proizv. konf. T. 1, -Penza, 1998. -S. 102-104.
5. Gafurov A. I. Sravnitelino - fiziologicheskoe izuchenie vliyaniya masla amaranta na funktsionalnoe sostoyanie organizma jivotnix: Avtoreferat dis...kand. biol. nauk. - Dushanbe, 2003. -19 s.
6. Goncharova E.A., Gins M.S., Xodorenko A.V., Shedrina Z.A., Bulinsev S.V. Regulyatornaya roli amarantina v prosessax rosta i razvitiya rasteniy. // Novie i netradisionnie rasteniya i perspektivi ix ispolizovaniya: Material IV Mejdunarod, simp.- Moskva, Pushino.